

## O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA ELCHILIK ALOQALARI (XIVA XONLIGIDA MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11107483>

*Ilmiy rahbar: t.f.d. (PhD) D.Yangiboyeva*

**Yakubova Nazira Nomozovna**

*TerDU, Tarix yo'nalishi magistranti*

### **Annotatsiya**

*Maqolada XVI boshlarida mintaqada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va xalqaro maydondagi kuchlar nisbati singari tashqi omillarning Xorazmdagi ichki ijtimoiy-siyosiy holatga ta'siri tahlil etilgan. Xususan, Xiva xonligining tashkil topish jarayonida Xorazmning Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Eron bilan an'anaviy aloqalari ko'rib chiqilgan. Unda Xiva xonligining so'nggi o'rta asrlarda Buxoro va Qo'qon xonliklari orasidagi elchilik munosabatlari haqida fikr va xulosalar keltirilib o'tilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi, Arabshohiylar, Eron, Xoji Muhammadxon, Abdullaxon II, Abulg'ozil Bahodirxon*

Xiva xonligi tarixi Buxoro va Qo'qon xonliklaridan ajralib turgan. Xiva xonligida tashqi siyosat kuchli olib borilmagan. Bunga asosiy sabab ichki nizolar sanalgan. Arabshohiylar sulolasi davrida ham keyingi "Qo'g'irchoq xonlar" davri qolaversa Qo'ng'irotlar davrida ham taxt uchun kurash mamlakat uchun foyda keltirmagan. Xiva xonlari dastavval Eron bilan o'zaro aloqa bog'lashgan bo'lsa keyinchalik munosabatlar yomonlashib boravergan. Buxoro xonligi davrida aloqalar goh uzilib, goh tiklangan, katta-katta urushlar kelib chiqqan bo'lsa-da Amirlik davrida munosabatlar anchayin yaxshilangan. Xiva xonligi diplomatiyasi o'zining turfa xilligi bilan ajraqlib turadi. Buxoro singari rus podsholigi, eron safaviylari bilan ham goh yaxshi munosabatlar, goh nizolar kelib chiqqan. Xiva xonligi Xoji Muhammadxon(1558-1602) davrida taxt uchun kurash tugab vaziyat barqarorlashgan edi. Xiva va Buxoro xonligi aloqalari dastlabki yillarda yaxshi bo'lsa-da, keyinchalik Abdullaxon II ning tashqi siyosati Xiva va Eron o'zaro yaqinlashishiga turtki bo'lgan. Xorazm askarlarining Eron qo'shini bilan ittifoq bo'lib, bir necha bor elchilar almashishi oqibatida Buxoro amirligi kuchlariga qarshi kurashganligi 1588-1593 yillarda Eron shoxi huzurida bo'lgan rus elchisi Vasilchekov ham ma'lumot berib o'tgan.

“Shajarayi turk” asarida Xoji Muhammad Abdullaxon II ga qarshi chiqa olmay Eronga borganida uni Eron Shohi Abbas I munosib qarshi olgani yozib o‘tilgan. Arab Muhammadxonni o‘g‘illari isyon ko‘tarishi oqibatida mamlakatda vaziyat keskinlashadi. Bu vaziyatda Arab Muhammadxonning kichik o‘g‘li Afg‘on Sulton Rus elchisi Ivan Xoxlov yordamida rus podshosi Mixail Fyodorovich saroyida borgan va umrini oxirigacha yashaganligi manbalarda keltirib o‘tilgan. “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirilishicha “Isfardiyor Sulton Eron shoxi Abbas I va turkman qabilalari yordamida otasidan qolgan taxtni qaytarib olgan”. Isfandiyorxon davrida “Xuroson isyoni” bo‘lib, bu voqealar ikki mamlakat o‘rtasida ziddiyatlar keltirib chiqargan. Abulg‘ozi Bahodirxon(1645-1663) davrida mamlakat biroz bo‘lsa-da mustahkamlandi. Abulg‘ozixon Shixbobo va Shoxjahonni elchi qilib Hindistonga Davlatmandni esa Rossiyaga elchi qilib yuborganligini ko‘rishimiz mumkin. Abulg‘ozixon 1648-yil eron shoxi Abbas II huzuriga ham elchi yuborib, do‘stlik aloqalarini kuchaytirgan. Abulg‘ozixon umrining oxirlarida Buxoro bilan aloqalarni yaxshilash uchun, Buxoro xoni Abdulazizxonga elchilar yuborgan. 1675-yilda rus knyazi Aleksey Mixaylovich Xiva xonligiga Vasiliy Daudov boshchiligida elchilar yuborib mamlakatlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatganligi manbalarda qayd etilib o‘tilgan.

Arabshohiyalar sulolasi inqirozga kelib qolgan paytlarda “qo‘g‘irchoq shoh” Shoxniyozxon 1700-yil da Rus podshosi Pyotr I ga maktub yo‘llab Xivani Rossiyaga tobe bo‘lishini so‘rab murajaat qilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, Akademik Yaxyo G‘ulomov bu maktubni boshqacha talqin etadi “Shoxniyozxonning o‘z hukmronligidagi elu elat bilan Rossiya fuqaroligiga o‘tishni so‘rab qilgan iltimosi zamirida o‘ziga qarashli xonlik xokimiyatini mustahkamlash va uning Buxoroga vassal qaramligini susaytirish maqsadi yotar edi” –deb izoh berib o‘tgan. Xiva va Buxoro xonliklaridagi nizolar Rus podsholigiaralashuvini tezlashtirib yuborgan. 1714-1717 yillarda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida 6000 skardan iborat ekspeditsiya uyushtiriladi. Aleksandr Bekovich Cherkasskiy elchilik yorlig‘i bilan kelganda Sherg‘ozixon qabul qilmasdan, aksincha Rus ekspeditsiyasini qirib yuboradi. Bu voqea Xiva xonligi va Rus podsholigi o‘rtasida salbiy oqibatlar keltirib chiqargan. 1740-yilda Nodirshox boshchiligida ulkan qo‘shin Buxoroga yurish qilishi, Buxoro va Xiva xonlari o‘rtasidagi nizo oqibatida esa Buxoro xonligi egallandi. Nodirshox Xivaga taslim bo‘lishni so‘rab elchi yuborganda Xiva xoni Elbarsxon elchilarni o‘ldirib yuborganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu voqeadan keyin Nodirshox Xiva xonligida muhim bo‘lgan Yovmutlarni diplomatik yo‘l bilan o‘z tomoniga og‘dirib Xiva xonligini bosib olishini kuzatishimiz mumkin.

Qo'ng'irotlar sulolasi Xiva taxtiga kelgach ular eng avvalo eng yaqin qo'shnisi Buxoro xonligi bilan o'zaro elchilar almashish jarayoni o'tkazganlar. Xiva xonlari Muhammad Amin inoq hamda o'g'li Muhammad Avaz inoq davrida o'zaro hurmat saqlaganlar. Xiva xoni Eltuzarxon davrida Buxoro amiri Amir Xaydarning ukasi Marv hokimi Dinnosirbek Xivaga elchi yuborib Eltuzarxon nomiga xutba o'qitib uni sharafiga tanga zarb etganligi bayon etilgan. Bu voqealar esa Xiva-Buxoro munosabatlarini keskinlashtirgan va ular o'rtasida 8 marotaba urush kelib chiqqan. Muhammad Rahimxon I davrida esa Buxoro xonligi bilan elchilik aloqalari tiklangan. "Firdavs ul Iqbol" asarida ma'lumotlarga ko'ra Muhammad Rahimxon I va Amir Xaydar o'rtasidagi elchilik aloqalari o'n yillar davomida deyarli muntazam elchilik aloqalari olib borilgan. Muhammad Rahimxon I davrida Qo'qon xoni Umarxon ham o'z elchilarini Xivaga yuborgan va do'stona aloqalar o'rnatgan. Xiva va Buxoroning ikki siyosatdan hukmdorlaridan so'ng taxtga kelgan davomchilari o'rtasida Marv masalasida ziddiyatlar kelib chiqqan. "Riyoziy ud-davla" da yozilishicha, Xiva xoni Olloqulixon va Buxoro Amiri Nasrullaxon ikki mamlakat o'rtasida tinchlik o'rnatishga bir necha bor urinishganlar. Ammo ichki ziddiyatlar mamlakatlar o'rtasida tinchlikka putur yetkazgan. Buxoro amiri Rus podshosi va Eron hukmdorlariga Xiva xoni Olloqulixon hatti-harakatlarini yomonlab, uning mavqeyiga putur yetkazgan holda elchilar yuborganligi manbalarda qayd etilgan. Buxoro amiri Nasrullaxon Xiva xoni Olloqulixon vafot etgach Xivaga yurish amalga oshirgan. Xiva xoni Buxoro bilan tinchlik yo'li bilan kelisha olmagach katta qo'shin safarbar etgan. Bu voqealar bevosita Buxoro amirligi ashaddiy dushmani Qo'qon xonligi bilan aloqalarni yaxshilagan. "Zubdatul-tavorix" da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Buxoro amirligi Xiva-Qo'qon o'rtasidagi do'stona munosabat tufayli tinchlik sulhi tuzishga erishgan. Rahimqulixonidan so'ng taxtga kelgan Muhammad Aminxon Buxoro bilan do'stona aloqa o'rnatishga harakat qilgan. 1841-yilda Xivada bo'lgan Eron elchisi Muhammad Alixon G'afur o'z safar kundaligida Xiva amaldorlariga yuzlangan holda shunday yozib qoldirgan "Sizlar diplomatiya qoidasini bilmaysizlar, ko'nglingizga kelganini gapiraverasizlar". Bu holatdan ko'rish mumkinki, Xiva xonligida diplomatik munosabatlar yaxshi qo'yilmagan edi. 1839-yilda rus general-adyutanti Perovskiy ekspeditsiyasi ham Xivaga yetib bora olmagan. Bu davrda Xiva xonligi Rus podsholigi bilan aloqalarni uzib qo'ygan edi. 1854-1855 yillarda Xiva xoni o'z elchilarini Rum (Usmoniylar) sultoniga huzuriga ham yuborganligini ko'rishimiz mumkin. Xiva xonligi qo'shni davlatlar bilan doimo aloqa o'rnatib, ular bilan do'stona munosabatga bo'lishga intilganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa

qilib aytadigan bo'lsak, Xiva xonligida elchilik aloqalari juda yuqori darajada bo'lmagan, garchi qo'shni mamlakatlar bilan elchilik aloqalari o'rnatilgan bo'lsa-da, doimiy davom etgan ichki ziddiyatlar, mamlakatlar o'rtasidagi kurashlar bunga to'sqinlik qilgan. Xiva xonigi ma'lum bir davrda Rus, Eron, Turkiya hatto Hindiston davlatlariga elchilar yuborgan bo'lsa-da bu holat uzluksiz davom etmagan. O'rta Osiyo xonliklari o'zaro kurashlari mamlakatlar o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilishga to'sqinlik qilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abulg'ozil Bahodirxon -"Shajarayi Turk" Toshkent. 1992
2. Muhis -"Firdavs ul-iqbol" Toshkent. 2010
3. Muhammad Alixon G'afur -Xorazm safar kundaligi Toshkent. 2009
4. Ogahiy -"Riyoz ud-davla" Toshkent. 1978
5. Ogahiy -"Zubdat ul-tavorex" Toshkent 2009
6. Nigora Allayeva -"Xiva xonligi diplomatiyasi va savdo aloqalari" Toshkent 2019